

---

## Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish takomillashtiriladi

"Tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan shaxslarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident Qarori (PQ-175-son, 10.05.2024 y.) qabul qilindi Qarorga ko'ra, tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan shaxslarga "oila - mahalla - tuman va hudud" tamoyili asosida kompleks ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimi joriy etiladi.

2024 yil 1 iyundan:

tazyiq va zo'rvonlikdan jabrlangan yoki jabrlanish xavfi ostida bo'lgan xotin-qizlarga himoya orderi talab etmagan holda ijtimoiy, psixologik va yuridik xizmatlar ko'rsatish tartibi joriy etiladi;

xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'rvonlik holati ichki ishlar organlari navbatchilik qismining "102" telefon raqamlariga kelib tushgan murojaatlar asosida ro'yxatga olinadi;

tazyiq va zo'rvonlik holati yoki ularni sodir etish xavfi aniqlangan paytdan e'tiboran 24 soat ichida quyidagilar amalga oshiriladi:

xotin-qizlar faoli va mahalladagi profilaktika inspektori ishtirokida tazyiq va zo'rvonlikni sodir etgan shaxs bilan suhbat o'tkaziladi;

profilaktika inspektori tomonidan himoya orderi rasmiylashtiriladi;

tazyiq va zo'rvonlikdan jabr ko'rgan xotin-qizlar va ularning voyaga yetmagan farzandlari markaziy tuman (shahar) shifoxonalarining shoshilinch qabul bo'limlariga joylashtiriladi;

rasmiylashtirilgan himoya orderlari va jabrlangan shaxslarga doir ma'lumotlar "Inson" markazlariga "Yagona milliy ijtimoiy himoya" axborot tizimi orqali yuboriladi.

**Doniyorjon Aliboyev,**  
**Rishton tumani Adliya bo'limi yuridik**  
**xizmat ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti.**

2024-07-06 18:18:58